



## XOR BILAN ISHLASH USLUBLARINING G'OYAVIY-BADIY VA TARBIYAVIY HAMIYATI

**Ayubov Qobil Zoidovich**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada xor bilan ishlashning o'ziga xos uslublari hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** musiqa tarbiyasi, xor, xalq og'zaki ijodi, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasir Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy.

Qadim-qadimdan Sharqning buyuk mutaffakirlari badiiy-estetik qadryatlardan tarbiyaning muhim vositasi sifatida foydalanib kelganlar. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasir Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy asarlarida Sharqona ma'naviyat asoslari o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda xalq og'zaki ijodiyoti namunalarining yoshlarga ma'naviy-estetik va g'oyaviy-siyosiy tarbiya berishdagi o'rni naqadar muhim bo'lib, mazku milliy qadryatlarning jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rni borligini, uni o'sib kelayotgan yosh avlodni har jihatdan kamolotga erishish yo'lida keng foydalanish davr taqazosi ekanligini unutmasligimiz lozim. Shu o'rinda Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir. Abu Nasr Forobiy musiqani tarbiyaviy fan deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tarbiyaga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lmanlarning muvozanatini saqlaydi. Bu tananing sog'ligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasalga uchrasha ruhan so'liydi, tana qiyinchilikka uchrasha, ruh ham azobga uchraydi. Shu sababli tananing davolanishi ruhni davolash orqali amalga oshiriladi, ovozlarning ta'siri ostida ruhiy quvvatlar o'z tanga moslashadi va tartibga muvozanatga keladi"<sup>144</sup>

O'quvchilar ongiga musiqa orqali eng yaxshi insoniy fazilatlarini singdirish va ularni sog'lom bo'lib voyaga yetkazishlari to'g'risida Abu Ali Ibn Sinoning fikrlari diqqatga sazavordir. U "Donishnama" asarida ilmlarni tasnif qilib, ilm o'rganish yo'llarini bosqichlarga bo'lib ko'rsatadi. Ilmga erishishning eng asosiy yo'li bolalarni yoshlikdan boshlab ta'lim-tarbiya ta'siri ostiga olishdir. Shuning uchun ibn Sino bolani olti yoshdan boshlab muallim ixtiyoriga topshirilishi, ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi kerakligi, birdaniga bolani kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim ekanligini aytadi. Ibn Sinoning bu tavsiyalari bugungi kunda musiqa san'atini mакtabdan

<sup>144</sup> Гигорян С.Н.Из истории философии Средний Азии и Иран 7-8 век. М: 1960-149c.



tashqari muassasalar to'garaklarida nafaqat musiqiy ta'lif va tarbiya manbai sifatida, balki unda milliy ruh, demakki milliy g'oyani anglash vositasi sifatida o'rganilishi pedagogik samarasi kafolatlangan omil bo'lishi mumkin.

O'zbek adabiyotining asoschisi, o'zbek she'riyat mulki xazinaboni Alisher Navoiy musiqa tarbiyasi orqali o'smirlarni har jihatdan mukammal etib rivojlantirish mumkinligini aytib o'tadi. O'smir yoshlikdan musiqa tarbiyasi ta'siriga nazoratga olinmasa, yigitlik davrida ham yo'lga tushib ketishi qiyin bo'lishi haqida fikr bildirib, quyidaig to'rtlikda shunday deydi:

Tufliyat o'tkach ki bo'ldi shabob,  
Hirad nuri soldi dumoq ichra tob.  
Kishining bu vaqt ikkidur holati,  
Erur aqli yo nafsining quvvat  
Agar aqlig'a o'ldi fuzun,  
Bo'lur yaxshi ishlar sori raxnamun.

Ular bu ta'lilot g'oyalarni maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida musiqiy talim va tarbiya jarayonida amalga oshirish uchun imkoniyatlar mavjud. Ana shuning uchun ham bolalarni juda kichik yoshdan boshlab tarbiyalamoq darkorligini aytadilar<sup>145</sup>.

Umumiy o'rta ta'lif mакtablarida "Musiqa madaniyati" o'quv fani dasturiga milliy musiqiy merosimiz namunalarini kiritilishi, o'quvchi yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, g'oyaviy jihatdan tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Maktabdan tashqari tadbirdarda, musiqa to'garaklarida milliy musiqa ijodiyoti, milliy qadryatlar, an'ana va marosimlari hamda xor asarlari bilan o'quvchi-yoshlarni yaqindan tanishtirish, ular ongiga singdirib borish bugungi globallashuv jarayoning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod o'quvchilarini ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta'sir etubi omillar qatorida maktabdan tashqari tashkil etiladigan musiqa to'garaklari, sinfdan tashqari olib boriladigshan ma'naviy-mehrifiy, badiiy to'garaklar faoliyati tarbiya imkoniyatlari alohida e'tiborga qaratishi lozitm bo'lgan vazifalardan biridir. Mamlakatmiz rahbar SH.Mirziyoyev o'quvchi yoshlarni maktabdan yoki sinfdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, yosh avlodni iqtidorini shakllantirish va rivojlantirish, ijodkorlik g'oyalarini namayon etishni tashkil etish maqsadida shaxsiy tashabbus ko'rsatdilar. SHu bilan bir qatorda mazkur faoliyatga o'quvchi yoshlarni ongi va tasavvurida milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishda pedagogik vosita sifatida qarash, tarbiyalash ularning shaxsiy imkoniyatlarini, asosiy yo'nalish va xususiyatlarini aniqlash, o'smir shaxsiga ta'sir etish sifatlarini ochib berishga imkon yaratildi.

Yosh avlodni kamol sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatorida musiqa ham alohida o'rin tutishi haqida O'zbekiston Respublikasining davlat

<sup>145</sup> A.Navoiy "Xamsa"Т : 1960-733 bet



mustaqilligi asoschisi Islom Karimov shunday degan etish -“... bugungi kunda musiqa san'ati navqron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishda boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda”<sup>14</sup>. Darhaqiqat, musiqa o'zining betakror tabiatli bilan o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta'sirida o'quvchilarda hissiyot olamining o'sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilish, go'zallikni sevish tabiatni asrash, Ona vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Maktabdan tashqari tashkil etiladigan badiiy tadbirlar orqali o'quvchi yoshlarda musiqa tarbiyasi orqali nafosat olamining asosiy va murakkab qirralarini, atrofidagi go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, butun umr davomiga undan zavq olib yashaydi. Shu bois o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish musiqa tarbiyasining bosh maqsadi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagog texnologiya asoslari. Toshkent "O'qituvchi" 2004 yil.
2. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. Toshkent "Fan" 2006 yil.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Mehruzalar matni. Toshkent FTDK, DITAF 2000 yil.
4. Grigoryan S.N. "Iz istorii filosofii sredney Azii i Iran 7-8 vek.". M. 1960 yil.
5. Bobur Z.M. "Boburnoma" T.1946 yil 23. Navoiy A. "Xamsa" T.1960 yil.